Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
Niyozova Shohsanam Nuritdinovna	



Auditorlik xulosalarini shakllantirishda auditorlik dalillariga qo'yiladigan talablar	1199
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	
Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati	1203
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari	1207
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	
Eko va agro-turizmga raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari	1212
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	
The importance of the cluster system in the agricultural field	1217
Sherkulov Shokhrux Erkin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari	1221
Mardonov Mashrab Mansurovich, Muxtorov Abduxolik Abdusalimovich	
Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlarini	1225
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati	1230
Mahmudov Nurali Komilovich	
Korporativ moliya tizimini rivojlantirishda raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning integratsiyasi	1241
Xalbekov Ozodbek Xudoykulovich	
The influence of tour interpretation on perceived heritage values: a comparative analysis of tourists with and without guided interpretation at a heritage destination	1245
Shokhnigorbegim Juraeva	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish	1252
Xazratov Abror Panjiyevich	
Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari	1257
Abriev Zoirjon	
Пути инновационного развития национальной экономики	1262
Жураев Тошболта Тухтаевич	
Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati	1267
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Application of ifrs in budgetary accounting	1272
G. Djambakieva	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida	1276
Raximov Alisher Ibragimovich	
O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili	1281
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich	
Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari	1288
Rahimova Qutlibika Ergashevna	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash	1293
Yuldasheva Gulmira	
Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzдорligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari	1296
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari	1303
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari	1313
Axtamova Parizod Oybek qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari	1319
Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich	



Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	1327
A'zamova Aziza Olimjon qizi	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....	1334
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari	1343
Qosimov Bobur Sobirovich	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....	1347
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna	
Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....	1359
Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна	
Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubiyoti.....	1374
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari	1383
Sarimsaqov Doniyor Xomidovich	
Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar tahlili	1390
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mehnat bozori: rivojlanish tendensiyalarining iqtisodiy-statistik tahlili, baholash va istiqbollari.....	1396
Mirzayeva Odina Imomnazar qizi	
Адаптивная модель антикризисных мероприятий, направленных на повышение эффективности управления активами, оптимизацию затрат и реструктуризацию задолженности	1402
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Xalqaro va ichki turistik bozorlarda o'zbekistonning turistik mahsulotlarini targ'ib qilish mexanizmi	1409
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tourism infrastructure constraints and service gaps in uzbekistan's visitor economy.....	1412
Kurolov Maksud Obitovich, Xamidjonova Moxinur Xayrulla qizi	
Основные проблемы перехода на МСФО в республике узбекистане	1419
Махмудов Жамшед Ашрафович	
Binolar loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari.....	1425
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Ayrim ta'lim tizimi bilan bog'liq terminlarning izohli lug'at va etimologik lug'at o'rtasidagi farqi.....	1429
Mahbuba Xoliqova Abdimo'min qizi	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatining ahamiyati	1433
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Corpus-based framework of english teaching for competency-oriented curriculum design	1448
Raximova Gulnoza Sharipjanovna	
Masofaviy ta'lim tizimida matematika fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	1454
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Texnologik inqilob va mehnat bozorining transformatsiyasi	1459
A'zamova Feruza, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sifat menejmenti tizimini rivojlantirish asosida uy-joy fondlarini boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....	1465
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



O'zbekistonda ekologik turizm: yashil iqtisodiyot rivojini tezlashtiruvchi omil.....	1471
Rashidov Saidislom	
Navoiy viloyatida yirik sanoat monopoliyalarini rivojlantirishning tabiiy-iqtisodiy salohiyati (“Qizilqumsement” AJ misolida).....	1474
Savrieva Madina Xakimovna, Xamroyeva Shaxnoza Ibrohim qizi	
Eksport-import operatsiyalarida dolzarb muammolar va yechimlar	1480
Xudayberdiyeva Dilnoza Egamberdiyevna	
Роль международных финансовых центров в мировой экономике	1484
Нуриддинова Мафтуна Жахонгировна	
Measures to enhance the tax mechanism applied to business entities.....	1489
Kudiyarov Kishibay, Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
Davlat boshqaruv organlarining xizmat ko'rsatish sohasini samarali tashkil etish orqali kambag'allikni qisqartirish.....	1495
Asrorov Uchqun Akram o'g'li	
The role of green logistics in Uzbekistan and international trends.....	1499
Turakulova Dildora, Ismoilova Diyora	
Hududlarda turizm mahallalarning turistik salohiyatini oshirish usullari (Bog'ibaland turizm mahallasi misolida)	1506
Raxmanov Jasur Ubaydulloyevich	
Human Capital and Artificial Intelligence: Navigating the Future of Work	1511
Hamrokulov Mirabbos, Karimbergan Kariev	
Analysis of green economic growth indicators in uzbekistan.....	1518
Toshboyev Bekzod Bakhtiyorovich	
Toshkent viloyati iqtisodiyotida vino turizmning o'rni.....	1526
Jalilov Shoxjahon Xolbozor o'g'li	
O'zbekiston sharoitida qurilish loyihalari materiallari sarfini tahlil qilish va optimallashtirish va ularni iqtisodiy-matematik modelmodellashtrish	1530
Turayeva Mohinur Asliddinovna	
Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda dasturiy ta'minot va zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni.....	1534
Xodjayevo Mu'tabar Xamidulla qizi, Cho'ponova Gulira'no Doniyor qizi	
Suv tarkibining “wireless waterlight” qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	1540
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
Zamonaviy sharoitda dxsh asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmatlar ko'rsatishning integratsion jarayonlari.....	1546
Ubaydullayeva Vasila Sadullayevna	
Donni saqlash va qayta ishlash korxonalari biznes jarayonidan olingan chiqindilar hisobini takomillashtirish	1549
Valijonov Xasanboy Akbaraliyevich	
Commercial real estate as a tool for synchronizing economic processes.....	1556
Nastassia Chyhyryna, Siarhei Liashuk, Allayeva Gulchexra Jalgasovna, Khakimdjanova Surayyo Khabibullayevna	
Asalarichilik faoliyatini rivojlantirish bosqichlari va istiqbollari	1563
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
Sug'urta kompaniyalari samaradorligini oshirishga qayta sug'urtaning ta'sirini baholash.....	1567
Abirqulova Sohijjamol Normuhammad qizi	
O'zbekistonda yerga mulkchilik munosabatlarini tartibga solishning amaldagi mexanizmi tahlili.....	1572
Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich	
«Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyatlar natijasida yerlarning degradatsiyasi muammosi: sabablari va yechimlari»	1578
O'ng'arov Hasan G'ayrat o'g'li	



The methodology for using a PM1-PM10 collection device in Uzbekistan is relevant to the climatic conditions	1584
Bakhtiyor Pulatov, Bobur Sadriddinov	
Gullar yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar: amaliy so'rovnoma asosidagi tahlil	1591
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	
Budjet mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning huquqiy asoslarini takomillashtirish	1595
Jurayev Nomoz Tursunpulotovich	
Ishlab chiqarish korxonalari tashkiliy tuzilmasida logistika xizmati samaradorligini oshirish.....	1601
Maxmidov Shirinboy Botirovich	
Bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri va jarayonlarni optimallashtirish.....	1606
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
The period of emergence of accounting policy and its significance in preparing financial statements.....	1611
Sayfulloyev Jamshid Qobil o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida kompaniyalar boshqaruv darajalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati.....	1615
To'ychiboyev Nozimjon Soliyevich	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KOMPANIYALAR BOSHQARUV DARAJALARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI



To'ychiboyev Nozimjon Soliyevich

Andijon iqtisodiyot va qurilish
instituti, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

E-mail: nozimjon_49@mail.ru

ORCID: 0009-0000-5868-7843

Annotatsiya: Ilmiy maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida kompaniyalar boshqaruv darajalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiyotga avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini joriy etishni o'rganish va undan samarali foydalanish yo'llari, raqamlashtirish zanjiri, avtomatlashtirish va raqamlashtirish samaradorligi, kompaniyani boshqarishning iyerarxik tizimi, qarorlarni qabul qilishni qo'llab-quvvatlashning axborot tizimi va raqamlashtirishning maqsadi — integratsiyalashgan ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida kompaniyani boshqarish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari, elektr energetikasi, elektr energetika kompaniyalari texnologik jarayonlari.

Abstract: The scientific article examines the importance of using information and communication technologies at the levels of company management in the digital economy, the ways of studying and effectively using the introduction of automated information technologies into the national economy in the digital context, as well as ways of managing a company as an integral socio-economic system, including the digitalization chain, the efficiency of automation and digitalization, the hierarchical company management system, the information system for decision support, and the purpose of digitalization.

Key words: : digital technologies, digitalization, information and communication technologies, automated information technologies, electric power industry, technological processes of electric power enterprises.

Аннотация: В научной статье рассматриваются вопросы значимости использования информационно-коммуникационных технологий на уровнях управления компаниями в условиях цифровой экономики, пути изучения и эффективного использования внедрения автоматизированных информационных технологий в национальную экономику, а также способы управления компанией как целостной социально-экономической системой, включая цепочку цифровизации, эффективность автоматизации и цифровизации, иерархическую систему управления компанией, информационную систему поддержки принятия решений и цель цифровизации.

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровизация, информационно-коммуникационные технологии, автоматизированные информационные технологии, электроэнергетика, технологические процессы предприятий электроэнергетики.

KIRIH

Oxirgi yillarda hayotimizning barcha jabhalariga raqamlashtirish texnologiyalarining keng kirib kelishi turmush tarzini tubdan o'zgartirib yubordi. Milliy iqtisodiyotimizning nafaqat barcha tarmoq va sohalarga raqamlashtirish kirib bormoqda, balki ijtimoiy sohalarni ham qamrab olmoqda. Hozirgi globallashtirish sharoitida



kompaniyalar boshqaruv darajalari va biznes jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari samarali qo'llanilmoqda. Zamonaviy kompaniyalarni raqamlashtirishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Raqamlashtirish — bu fuqarolar va kompaniyalarning axborot resurslarini shakllantirish va ulardan samarali foydalanishga asoslangan ehtiyojlarini qondirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayondir. Kompaniyani axborotlashtirish esa avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida (AAT) shakllangan axborot resurslaridan (AR) keng foydalanishga asoslangan holda boshqaruvning axborotga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashdan iboratdir.

Raqamlashtirish vositalarini tanlashda kompaniyaning axborotga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, AATning ishlash jarayonini tushunish va tizimni amalga oshirishdan kutilayotgan iqtisodiy natijalarni to'g'ri anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi savollarga javob berish nihoyatda muhim bo'lib, natijada shakllanadigan axborot tizimlarining kompaniya ehtiyojlariga qay darajada mos kelishi vazifalarning to'g'ri qo'yilishiga bog'liq bo'ladi. Kompaniyada raqamlashtirish muammosini muvaffaqiyatli hal etish murakkab va mashaqqatli jarayon bo'lib, uning yakuniy maqsadi — kompaniyaning yagona axborot makonini yaratishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Axborotlashgan jamiyatni shakllantirish, AKTdan milliy iqtisodiyotimizning turli sohalarida foydalanish muammolari etakchi iqtisodchi olimlar, iqtisodiy informatika va avtomatlashtirilgan boshqaruv axborot tizimlari sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar tomonidan chuqur o'rganilgan.

Xususan:

S. S. G'ulomov tadqiqotlari milliy iqtisodiyotning turli sohalarida AKTdan foydalanish va ularni joriy etish samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlangan [1].

A. N. Aripov axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bozorini butun tizim sifatida ko'rib chiqib, ular asosida makro darajadagi boshqaruv konsepsiyasini taklif etadi [2].

S. M. Sultonova ilmiy ishlarida temir yo'l transporti korxonalarida buxgalteriya hisobining ma'lumot tizimlari ishlash usullari bo'yicha yondashuvlar va takliflar beradi [3].

B. B. Trofimova kompaniyalar va korxonalarni boshqarishda axborot tizimlari va texnologiyalarini joriy etish bo'yicha izlanishlar olib borgan [4].

I. T. Trubilin esa iqtisodiyotda avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari mavzusiga bag'ishlangan darsligida kompaniyalarga AATni joriy etish yuzasidan ilmiy takliflar beradi [5].

Yu. N. Dresher ishlab chiqarish korxonalari va kompaniyalarda avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha nazariy asoslar ishlab chiqqan [6].

V. S. Provalov kompaniya va korxonalarda axborot texnologiyalari orqali boshqaruvni tashkil etish bo'yicha ilmiy tavsiyalarini ilgari surgan [7].

O'zbekistonlik olimlardan O. Umarov esa kommunal to'lovlar hisob-kitob jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha takliflarini ilgari surgan. Hozirgi vaqtda mazkur takliflar ushbu sohadagi korxonalarda amalda qo'llanilmoqda [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish davomida monografik tahlil, ekspert baholash hamda tizimli tahlil usullaridan foydalangan holda elektroenergiyani iste'mol qilish bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish va ularni qayta ishlashga oid axborot jarayonlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kompaniyani raqamlashtirish tabiatan evolyutsion xususiyatga ega bo'lib, bu birinchidan, boshqaruv tizimlari evolyutsiyasi; ikkinchidan, biznesni boshqarish texnikasini o'zgartirish va yangi axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarning paydo bo'lishi; uchinchidan esa biznes jarayonlarini takomillashtirish bilan belgilanadi.

Bizning fikrimizcha, umumiy holda raqamlashtirish zanjiri quyidagi bosqichlardan iborat:

Korporativ va marketing strategiyasini shakllantirish.

Strategik menejment usullarini tanlash.

Operatsion boshqaruv metodologiyasini tanlash.

Biznes jarayonlarini rasmiylashtirish, boshqaruv hisobi va AATni tanlash.

AATni joriy qilish va undan samarali foydalanish.

Avtomatlashtirish bosqichlari o'zgarishlar tabiatiga qarab, menejment yoki biznes jarayonlarining to'liq yoki qisman rivojlanish jarayonlarida takrorlanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni va makroiqtisodiy tizimlarni boshqarishni avtomatlashtirish g'oyalari bozor iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan, shuningdek kompaniyalar tarkibidagi tub o'zgarishlarga qarab o'zgaradi va u rivojlanish hamda pasayish davrlarini boshdan kechiradi. Ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlash ko'pincha an'anaviy, ya'ni qo'lda ishlanadigan ma'lumotlar bazalarini



butunlay siqib chiqarmaydi, balki ular bilan parallel ishlash zarurati saqlanib qoladi. Shu sababli ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlashga o'tish nafaqat korxonalar uchun, balki boshqaruv ma'lumotlarini qo'lda qayta ishlash usulini saqlab qolgan kompaniyalar uchun ham dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Bizning tadqiqotlarimiz quyidagi tendensiyalarni aniqlashga imkon berdi:

O'rnatilgan boshqaruv protseduralarini doimiy ravishda yangilab borish zarurati menejmentda tan olingan. Avvalgi modellari AKT sharoitida ko'p hollarda qo'llanilishi mumkin emas.

Axborot tizimlarida menejmentni joriy etishda shaxsiy va tashkiliy omillarni e'tiborsiz qoldirish ko'pincha konsalting va reinjining mutaxassislarining sa'y-harakatlarini samarasiz qiladi.

Avtomatlashtirish va raqamlashtirish samaradorligini yetarli darajada baholamaslik, menejment xarajatlarning asossiz kamayishiga, xodimlarning bo'shatilishiga bo'lgan noto'g'ri kutilmalar — boshqaruv jarayonlari sifatining oshishiga emas, balki ishchilarda ko'ngil sovishiga va real samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

Boshqaruv jarayonlarini qayta tashkil etish masalasini ish joylarini faqat kompyuter texnikasi va oddiy jihozlar bilan ta'minlash darajasida ko'rish, menejment texnologiyalari tannarxining ortishiga va ularning samaradorligi pasayishiga sabab bo'ladi.


Kompaniyani bo'limlar bo'yicha qayta tashkil etish, odatda quyidagi uch mezondan biri asosida amalga oshiriladi: mahsulot yoki xizmatlar turi, ma'lum iste'molchilar guruhlariga yo'naltirilganlik, yoki xizmat ko'rsatadigan hududlar bo'yicha. Ushbu yondashuv iste'molchilar va bozor bilan yaqin aloqani ta'minlaydi hamda tashqi muhit o'zgarishlariga kompaniyaning javob berish tezligini oshiradi.

Shuningdek, maqsadli-dasturiy boshqaruvning quyidagi shakllari mavjud:

Yangi ilmiy va texnik muammolarni hal etish uchun funksional va chiziqli muammolarni muvofiqlashtiradigan tashkiliy tuzilishga qo'shimcha tarkibiy bo'linma kiritiladi, u funksional muvofiqlashtirish bo'limidan iborat bo'ladi.

Loyihani yoki dasturni boshqarish — uni ishlab chiqish va tasdiqlashdan so'ng, loyiha menejeri uni amalga oshirish uchun barcha zarur vakolatlarga ega bo'ladi. Bu lavozim direktor o'rinbosari maqomiga ega bo'lishi mumkin, ba'zida undan ham yuqori bo'ladi. Loyihani boshqarish quyidagilarni o'z ichiga oladi: loyiha maqsadlarini aniqlash, tuzilmani shakllantirish, ishlarni rejalashtirish va tashkil etish, ijrochilar harakatlarini muvofiqlashtirish.

Tashkiliy tuzilmalarni o'rganishda samaradorlik kriteriyasi sifatida quyidagi omillarni e'tiborga olish tavsiya etiladi: ma'lumotlar oqimining turli tashkiliy tuzilmalar iyerarxik zinapoyalaridan o'tish muddati, javobning tezligi, ma'lumotlarni uzatishda xato ehtimoli, yuqori menejerlar ish yuklamasi darajasi, maxfiylik darajasi va turli tashkiliy tuzilmalar ostida ishlashning kompaniya faoliyatiga ta'siri. Aytaylik, kompaniyada to'rt bosqichli iyerarxik zinapoya mavjud: kompaniya boshqaruvi, filial boshlig'i, bo'lim boshlig'i, xodim (1-rasm). Chiziqli va chiziqli-funksional tuzilmalarda ma'lumotlar oqimi quyidagicha taqsimlanadi: "xodim — bo'lim boshlig'i — filial boshlig'i — kompaniya boshqaruvi" va aksincha. Matritsali strukturada esa to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar oqimi faqat "xodim — loyiha menejeri" segmentida amalga oshiriladi. Biroq, masalani hal etishda funksional bo'lim rahbarlari ham ishtirok etadi.



4

1-rasm. Kompaniyani boshqarishning iyerarxik tizimi.

Uchta teng huquqli soha — chiziqli, funksional va maqsadli-dasturiy yo'naltirilgan tashkiliy tuzilmalar boshqaruvning eng moslashuvchan shaklini ifodalaydi va kompaniyani boshqarish amaliyotida "uch o'lchovli




matrisali tuzilma” deb ataladi. Matrisaviy boshqarish tuzilmasini ijrochilarning ikki tomonlama bo’ysunuv prinsipiga asoslangan “panjara” tashkiloti sifatida tavsiflash mumkin, ya’ni bir tomondan xodimlar va boshqa resurslarni taqdim etadigan funksional bo’linmaning bevosita rahbariga, boshqa tomondan esa zarur vakolatlarga ega bo’lgan, vaqt, sifat va manbalar uchun javobgar bo’lgan vaqtinchalik guruh rahbariga bo’ysunadi.

Kompaniyalarda matrisali tuzilmalarni qo’llash ko’lami ahamiyatli bo’lib, bu ularning samaradorligini ko’rsatadi. Garchi ikki tomonlama bo’ysunish tizimi xodimlarni boshqarish va undan samarali foydalanish bilan bog’liq ko’plab muammolarni keltirib chiqarsa ham.

Bo’linuvchi (divizion) boshqaruv tuzilmasida ma’lumotlar oqimi “xodim — bo’lim boshlig’i — filial boshlig’i” zanjiridan o’tadi va aksincha. Bunda ma’lumotlarni tahlil qilish va iyerarxiyani takomillashtirish bilan qaror qabul qilishga sarflanadigan vaqt kamayadi. Bo’linuvchi tuzilma sharoitida qarorlar qabul qilish vaqti boshqa shakllarga nisbatan eng kichikdir.

Chiziqli sxema bo’yicha qarorlar qabul qilishda yuqori darajadagi operatsion tanaffuslar vaqti sezilarli tarzda oshib ketadi. Operatsion tanaffuslar matrisaviy modellarda ham kuzatilib, ularning hajmi sub’yektiv omillarga bog’liq bo’ladi. Amaliyotda ma’lumotlar buzilishining darajasi ijrochidan uzoqlashgan sari oshadi. Bu parametr bo’yicha eng katta ijobiy natijaga boshqaruvni bo’linuvchi (divizion) sxema asosida tashkil etishda erishiladi [6].

Har qanday sohada tashkiliy tuzilmani shakllantirishda — chiziqli, funksional yoki dasturiy-maqсадli boshqaruvda daraxtsimon iyerarxik bo’ysunish mavjud. Shu sababli tashkiliy tuzilmalarni loyihalashda asosiy vazifa — daraxt iyerarxiyasini to’g’ri tanlashdan iborat.




2-rasm. Qarorlarni qabul qilishni qo’llab-quvvatlashning axborot tizimi.

Tadqiqotlarimiz natijasida, bunday darajadagi AAT eng sodda va asosan standart hisobotlar hamda so’rovlar asosida oddiy algoritmlarni guruhlash, saralash va umumlashtirish texnologiyalari orqali ma’lumotlarni yig’ish, to’plash va shakllantirish funksiyalarini bajarishi aniqlangan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun, ushbu sinfdagi AAT odatda ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimining tarkibiy qismi sifatida so’rovlarni qayta ishlash dasturlarini o’z ichiga oladi.

Ikkinchi holda, AAT inson ishtirokida yakunlanuvchi va ma’muriy qarorlarni qabul qilishni qo’llab-quvvatlaydigan mustaqil axborot zanjirini hosil qiladi (2-rasm). Ushbu tuzilma boshqaruv qarorini qabul qiluvchi shaxs bilan o’zaro munosabatlarning sifat jihatidan yangi shaklini amalga oshiradi.

Raqamlashtirishning maqsadi — integratsiyalashgan ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida kompaniyani boshqarish bo’yicha samarali qarorlar qabul qilish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

“Andijon hududiy elektr tarmoqlari” AJning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi muammoli vaziyatlarda tezkor javob qaytarish imkonini berib, boshqaruv markazidan obyektlar va ularning xususiyatlari to’g’risidagi joriy ma’lumotlarni olish samaradorligini oshiradi (3-rasm).



3-rasm. “Andijon hududiy elektr tarmoqlari” Ajda elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kompaniyani boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy muammosi — o‘zini-o‘zi tartibga soluvchi bozor mexanizmlari va markazlashtirilgan tartibga solish o‘rtasida murosaga erishish yo‘llarini izlashdir. Menejmentni markazlashtirish va markazlashtirmaslik muammosi har qanday kompaniyani boshqarishni murakkablashtiradi. Shuning uchun ham tashkiliy tuzilmani shakllantirishda tizimning yaxlitlik darajasi va tarkibiy qismlardan foydalanish darajasi haqida ma‘lumotlar berish foydalidir. Bu faoliyat sub’yektlarga erkinlik berilganda yoki kompaniya boshqaruvini markazlashtirish–markazlashtirmaslik darajasini baholash sifatida izohlanishi mumkin.

Bu darajadagi AATning asosiy maqsadi — boshqariladigan ob’ektlarning axborot modellari, ma‘lumotlarni qayta ishlash va prognozlashning matematik va statistik usullari hamda ekspert tizimlari yordamida qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining sifatini sezilarli darajada oshirishdir. Bu AAT sinfining asosiy texnologiyalari — AKT bo‘yicha qarorlar qabul qilish, ekspert tizimi texnologiyalari va sun‘iy intellektdan iboratdir. Qarorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha ma‘lumotlar zanjiri va murakkab o‘zini-o‘zi boshqarish tizimlariga umumiy boshqarish mexanizmi bilan AAT boshqarish sxemasining o‘xshashligiga e‘tibor qaratish lozim.

Kompaniyani raqamlashtirish modelining konsepsiyasiraqobatbardosh bozor iqtisodiyoti bilan belgilanadigan raqamlashtirishga bo‘lgan ehtiyojdir. Kompaniyani raqamlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj kompaniyada AATning yaratilishiga olib keladi. Bu esa amalga oshirilayotgan boshqarish texnologiyalariga muvofiq avtomatlashtirilgan funksiyalarni qamrab olish darajasi bilan farqlanadi.

AKTni integratsiyalashgan holda joriy etish doirasida elektr energiyasini hisobga olishning avtomatlashtirishga oid umumiy prinsipi belgilab berilgan. Unga muvofiq, energiya tizimi va elektr energiyasi bozorining barcha sub’yektlari uchun samarali elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilish qurilmasini ta‘minlash talab etiladi:

Iqtisodiy jihatdan nafi bo‘lgan barcha narsani o‘lchash mumkin. Ma‘lumki, elektr tizimida elektr energiyasi foydalanilishi kerak bo‘lgan barcha nuqtalarda o‘lchanmaydi. Masalan, elektr tarmoqlaridagi yo‘qotishlar kabi ko‘plab muhim miqdorlar o‘lchanmaydi, ammo ular tasdiqlangan usullarga muvofiq hisoblab chiqiladi. Ularni hisoblash uchun juda ko‘p shartli qoidalar mavjud. Agar xohlasangiz, koeffitsiyentlarini o‘zgartirib, siz har qanday taxmin qilingan standart yo‘qotishlarni olishingiz mumkin. Ular uchun tarif belgilanadi va bu energetiklar uchun maosh hamda daromad manbai bo‘lishi mumkin.



Elektron o'lchashning geografik taqsimlangan ma'lumotlar bazasi vaqt mintaqasining joriy vaqti bilan sinxronlashtirilishi kerak. Faqat ushbu prinsipni amalga oshirish bilangina real energiya sarfi jarayonlarining vaqt o'lchovlarining birligi va vaqt ichida ishonchli quvvat va energiya miqdorlarini olish to'g'risida gapirish mumkin.

Hisoblagichning tarif xarakteristikalarini mavjud tariflarni ham, istiqbolli tariflarni ham oshirish tomon yo'naltirishi kerak. Elektron hisoblagichning ishlash muddati odatda 30 yil etib belgilanadi. Ushbu davrda tariflar bir necha marta o'zgarishi mumkin. Elektron hisoblagichlar ishlab chiqarilgan vaqtda hali ko'zda tutilmagan tariflarni ham amalga oshirishga imkon beruvchi dasturlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Hisoblagichlarning raqamli interfeysi xalqaro standart interfeyslar sinfiga tegishli bo'lishi kerak va mantiqiy interfeys ochiq, davlat tilida to'liq va aniq tavsiflangan bo'lishi kerak. Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishda xususiy yopiq protokolli va hujjatli tavsifi bo'lmagan protokolli hisoblagichlardan keng foydalanish mumkin emas. Protokolning ochiqligi bizga har xil ishlab chiqaruvchilar hisoblagichlarining qiyosiy tahlilini nafaqat texnik, balki telekommunikatsion xususiyatlar bo'yicha ham avtomatlashtirilgan jarayonlarni boshqarish tizimlarini ishlab chiqishning dastlabki bosqichlarida solishtirish imkonini beradi. Bu esa avtomatik boshqaruv uchun avtomatik tizimni to'g'ri va asosli tanlashni ta'minlaydi.

Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilish texnik vositalarining dasturiy ta'minoti ularning metrologik xususiyatlariga mos bo'lishi kerak hamda standart himoya vositalaridan foydalangan holda ruxsatsiz tizimga kirishdan himoyalangan bo'lishi zarur. Xususan, dasturiy ta'minot quyidagilarni bajarishi kerak: kirish ob'ektlarini identifikatsiyalash va autentifikatsiya qilish, terminallar hamda aloqa kanallarini aniqlash va boshqalar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamlashtirish kompaniyaning asosiy faoliyatidagi raqobat natijasi bilan belgilanadi. Raqobatsiz real raqamlashtirish bo'lmaydi; busiz kompaniya bozorda o'z mavqeini yo'qotadi yoki uning faoliyati butunlay to'xtaydi. Avtomatlashtirishning turli darajalari, elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilish, ishlab chiqarish texnologik darajasi hamda avtomatlashtirilgan tizimlarning mantiqiy bog'liqligi va o'zaro ta'siri tobora aniqroq namoyon bo'lmoqda. Ushbu tizimlarning integratsiyasi kompaniyaning ishlab chiqarish kuchlarini — ya'ni texnolog operatorlardan tortib, rahbariyat faoliyatini to'liq avtomatlashtirishgacha — qamrab olishga imkon beradi.

“Andijon hududiy elektr tarmoqlari” AJning avtomatlashtirilgan axborot tizimlari viloyat rahbariyatini axborot bilan ta'minlashning asosiy vositasi bo'lib, kompaniya tomonidan qabul qilingan barcha ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari majmuasi sifatida ko'rilishi zarur. Mazkur jamiyatning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi muammoli vaziyatlarda tezkor javob qaytarish uchun boshqaruv markazidan obyektlar va ularning xususiyatlari to'g'risidagi joriy ma'lumotlarni olish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, “Andijon hududiy elektr tarmoqlari” AJda aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlarni raqamlashtirish orqali aholi bilan ishlash sifatini yaxshilash mumkin.

Axborot menejmenti kompaniyaning axborot faoliyatini va undagi axborot jarayonlarini rejalashtirish, muvofiqlashtirish hamda nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Axborotlarni boshqarishning asosiy funksiyasi — bu AATni kompaniya biznesini rivojlantirishning asosiy maqsad va yo'nalishlariga muvofiqlashtirishdan iboratdir. Kompaniyaning boshqaruv tizimini takomillashtirishda boshqaruv tizimlarini modellashtirish zarur bo'lib, AATni yaratish amaliyoti tizim arxitekturasiga mos keladigan dasturiy modullarni ketma-ket ishga tushirish orqali amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'ulomov S.S., Begalov B.A. *Informatika va axborot texnologiyalari*. Darslik. — T.: Fan, **2010**. — **704 b.**
2. Aripov M. va boshqalar. *Informatika, informatsion texnologiyalar*. 1-qism. — Toshkent: TDTU, **2003**. — **320 b.**
3. Sultonova S.M. *Informatsion tizimlar va buxgalteriya hisobi: muammolar, izlanishlar, yechimlar*. Monografiya. — T.: Fan, **2009**. — **116 b.**
4. *Informatsion tizimlar va texnologiyalar iqtisodiyot va boshqaruvda*. Darslik / Tahrir hay'ati rahbari prof. V.V. Trofimov. — M.: Vysshee obrazovanie, **2006**. — **480 b.**
5. *Iqtisodiyotda avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari*. Darslik / Umumiy tahrir ostida: I.T. Trubilin. — M.: Finansy i statistika, **2000**. — **[bet ko'rsatilmagan]**.
6. Dresher Yu.N. *Axborot ishlab chiqarilishini tashkil etish*. O'quv qo'llanma. — M.: FAIR-PRESS, **2005**. — **248 b.**
7. Provalov V.S. *Boshqaruv axborot texnologiyalari*. O'quv qo'llanma. — M.: Filinta: MPSI, **2008**. — **376 b.**
8. Umarov O.S. *Kommunal to'lovlari jarayonlarini axborot tizimlari asosida samarali tashkil etishning tadqiqoti* (“Toshkentshahargaz” korxonasi misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Toshkent, **2018**. — **162 b.**



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
